



NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMI F A R M O Y I S H I

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-13-42, nurota@nv.uz

2023 - yil 24 - fevral

33-5-74-F/23

Nurota tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ning 28, 73-moddalariga muvofiq, byudjet tashkilotlari va muassasalari, byudjetdan mablag‘ oluvchilarning murojaatlari hamda tuman moliya bo‘limining 2023-yil 23-fevraldagi 01-12-238/20-03-38/5-sonli xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan,

1. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi (Haydarov) tuman mahalliy byudjetining zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tuman hokimligiga - tuman hokimligi balansidagi I.Karimov ko‘chasida joylashgan 6 ta turar joy binolarini kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish xarajatlari uchun 5,1 million so‘m, tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga – tuman markazidagi ko‘chalarga manzarali yoritgichlar o‘rnatish xarajatlari uchun 185,0 million so‘m, Chashma tarixiy me‘moriy majmuasiga yo‘naltiruvchi turizm yo‘l belgilari o‘rnatish xarajatlari uchun 15,7 million so‘m jami 205,8 million so‘m mablag‘ ajratsin.

2. Byudjet tashkilotlari va muassasalari hamda byudjetdan mablag‘ oluvchilar ajratilgan mablag‘dan maqsadli va samarali foydalanilishini ta‘minlasin.

3. Tuman Moliya bo‘limi, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

4. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Bo‘riyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Fayziyev